



# Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 fevral holatiga

## RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **0,7 mingtaga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar ulushi o'zgarishsiz qolgan
- Tugatilgan korxonalar nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **0,8 mingtaga oshgan.**

2018 yilning yanvar oyida Toshkent shahrida 1,1 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 87 tani ko'pdir.


Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,9 % kamaygan hamda ularning soni 291 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 0,7 mingta (1,2 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 62,0 mingtani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Yunusobod (13,6 foiz), Chilonzor (12,8 foiz), Mirzo Ulug'bek (11,8 foiz) va Olmozor (10,1 foiz) tumanlarida kuzatilmoqda.

## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda




## Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari,  
2018 yilning 1 fevral holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	ming birlik	jamiga nisbatan %	ming birlik	jamiga nisbatan %
<b>Toshkent shahar</b>	<b>63,2</b>	<b>100,0</b>	<b>62,0</b>	<b>100,0</b>
tumanlar:				
Uchtepa	5,3	8,4	5,2	8,4
Bektemir	1,3	2,1	1,3	2,1
Yunusobod	8,6	13,6	8,4	13,5
Mirzo Ulug'bek	7,4	11,7	7,3	11,8
Mirobod	5,5	8,7	5,4	8,7
Shayxontohur	6,5	10,3	6,2	10,0
Olmazor	6,3	10,0	6,3	10,2
Sergeli	3,6	5,7	3,5	5,6
Yakkasaroy	5,7	9,0	5,6	9,0
Yashnobod	4,9	7,8	4,9	7,9
Chilonzor	8,1	12,8	7,9	12,7

### Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va fao'liyatsizlarning ulushi, % da




faoliyat ko'rsatayotganlar
  faoliyatsizlar

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 98,1 % ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 1,9 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda o'zgarishsiz qolgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari boyicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 19,8 foiz sanoatda, 19,0 foiz savdoda, 7,5 foiz yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 7,2 foiz qurilishda, 4,4 foiz tashish va saqlash, 3,6 foiz axborot va aloqa, 2,1 foiz sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,0 foiz qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, va 35,4 foiz boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning ulushi boshqa turlarda (-0.6 f.p dan), savdoda (0,2 f.p.dan), tashish va saqlashda (-0,1 f.p ) kamayganligi, buning natijasida, qurilishda (+0.5 f.p), axborot va aloqada (+0.3 f.p), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,1 f.p), shuningdek yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda(+0.1 f.p) faoliyat turlarida ulushining o'sishiga olib keldi.


**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktida**

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.02.2018 y.	01.02.2017 y.	farqi (+-)
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2,1	2,1	0
Savdo	19,0	19,2	-0,2
Axborot va aloqa	3,6	3,2	+0,4
Sanoat	19,8	19,8	0
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1,0	1,0	0
Qurilish	7,2	6,7	+0,5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7,5	4,7	0,2
Tashish va saqlash	4,4	4,4	0
Boshqa turlari	35,4	36,2	-0,8

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni**


2018 yil 1 fevral holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 3671 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 306 taga yoki 9 % ga o'sgan.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda**




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Mirobod tumani 609 ta (16,6 %), Yakkasaroy tumani 580 ta (15,8 %) va Yunusobod tumanlarida 448 ta (12,2 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Sirg'ali tumani 157 ta (4.3 %), Uchtepa tumani 111 ta (3,0 %), Olmazor 199 ta (5,4 %) va Bektemir tumani 90 ta (2,4 %) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda**



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 fevral holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 1182 ta (32,1 %), savdoda 881 ta (24, %), boshqa turlarida esa 887 ta(24,1%) tashkil qilgan,eng kamlari esa qishloq,o'rmon va baliq xo'jaligi 35 ta (1,0 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 55 ta (1,5 %), tashish va saqlashda 122 ta (3,3%), axborot va aloqada 119ta (3,2%), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 181 ta (4,9 %) va qurilishda 257ta(7,0 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda qishloq,o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



## Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 fevral holatiga Toshkent shaxrida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 53,0 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 fevral holatiga qaraganda 10,1 %ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 7149 tasi (13,5 %) Yunusobod tumaniga, 6739 tasi (12,7 %) Chilonzor, 6150 tasi (11,6 foizi) Mirzo Ulugbek hamda 5570 tasi (10,5 foizi) Olmazor tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, ming birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 53,0 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 12201 tasi (23,0 %) – sanoatda, 11609 tasi (21,9 %) - savdoda, 4581 tasi (8,6 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 4456 tasi (8,4 %) - qurilishda, 2656 tasi (5,0%) - tashish va saqlashda, 2180 tasi (4,1 %) - axborot va aloqa sohasida, 1031 tasi (1,9 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 13723 tasi (25,8%) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


### Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil 1 fevral holati bilan 1,1 mingdan ortiq kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 3,8 foizga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Yunusobod tumanida (133 ta), Chilonzor (129 ta), Shayxontoxur va Mirzo Ulugbek tumanlarida (122 tadan) tashkil etilgan. Eng kam Bektemir (26 ta), Sirgali (66 ta) hamda Ykkasaroy (77 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (228 ta), savdoda (253 ta), qurilishda (108 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida (108 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (17 ta), axborot va aloqada (65 ta) va tashish va saqlashda (53 ta) tashkil etilgan.


## Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



## Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 fevral holatiga 1971 tani tashkil etib, ulardan 1949 tasi yoki 98,9 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni **42,4** %ga oshganligini ta'kidlash lozim.


## Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda





Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 46,3 % yoki 912 tasi sanoat, 15,8 % yoki 312 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 15,3 % yoki 302 tasi savdo, 2,5 % yoki 49 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,6 % yoki 32 tasi axborot va aloqa, 1,5 % yoki 30 tasi qurilish, 0,8 % yoki 15 tasi tashish va saqlash, 0,8 % yoki 16 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 15,4 % yoki 303 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Toshkent shaxar statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarni yuritish va tizimli  
xizmat ko'rsatish bulimi

Nashr uchun mas'ul: **L.Egorova**  
(0371) 230-88-31

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat  
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida  
tayyorlangan